

**LAFFASIY VA BOBOJON TARROH TAZKIRALARIDA HABIBULLO
OXUNUD XABIBIYNING AVTOBIOGRAFIYASI****Xaytboyeva Ziyoda Farhod qizi**

Alisher Navoiy nomidagi O‘zbek til va
adabiyoti universiteti Matnshunoslik va
manbaashunoslik fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz tahlilga tortgan XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida yashab ijod etgan Laffasiy va Bobojon Tarrohning tartib bergan tazkiralari qiyosiy tarzda o‘rganilgan bo‘lib, bunda Xabibiyning hayotiga bog‘liq ayrim ma’lumotlarning farqliligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu maqolada farqli jihatlar atroflicha o‘rganilib. Tahlil etilgan

Kalit so‘zlar: Habibullo Oxund Xabibiy, matnshunos, manba, Muhammad Rahimxon II (Feruz), Lasaffiy “Tazkirat- ush-shuaro”, Bobojon Tarroh, “Shoirilar va navozandalar”, tazkira, bayoz.

«Tazkirachilik tarixi ma’lum ma’noda adabiyotshunoslik tarixi hamdirki, uni o‘rganmay turib, milliy adabiyot tarixini keng ko‘lamda tasavvur etish va yoritish mumkin emas»¹. “Tazkiralarda shoirlarning hayoti va ijodi haqida muxtasar ma’lumotlar zikr etilib, ularning asarlaridan namunalar keltiriladi va umumiy baho beriladi”. Tazkiralalar adabiyotga tazkira ma’lumotlari orqali nazar solish, sulolaviy ijodkorlar hamda ularning asarlari borasida ma’lum darajada tasavvur paydo qilish, adabiyotshunoslikda hali ma’lum bo‘lmagan ba’zi bir ijodkorlarning nomlari bilan tanishtirishda muhim manba bo‘lib, davr adabiyotining muhim xususiyatlarini o‘rganishga imkon yaratadi.²

¹Болтабоев Х, Тазкиралар зикри. – Т.: Mumtoz so‘z, 2015. – Б. 3.

² XORAZM ADABIY MUHITIDA TAZKIRANAVISTLIGI. Do'stova Surayyo Savronovna O'zbekiston Respublikasi Jizzax davlat pedagogika universiteti Dotsent, f.f.f.d. (PhD)



E'tibor berishimiz lozim bo'lgan yana bir nuqta borki, har uchala tazkirada ham Habibullo Shayton haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Bobojon Tarroh qalamiga mansub “Xorazm navozandalarida” shunday deyiladi:

Shoir Habibullo Shayton bayoni

Shoirning nomi Habibullo Shayton, otasining nomi Muhammad Amin Shayton bo'lg'on, Habibulloning adabiy nomi Xabibiy edi. U Mahmud devon qo'mida tug'ilg'on. Bu joy Xivaning tashqari qal'asidagi Shoqalandarbobo avliyoning yonidadir. Habibulloning otasi po'stindo'z bo'lgani uchun ham uni hunarmand oilasidan chiqqan deyishimiz mumkin.

Habibullo eski maktabni to'liq bitkazgan, biroq madrasa ta'limini to'liq olmagan, xattotlik bilan shug'illanib, devon bo'lg'on. U devon tartib bergan bo'lishi kerak. Lekin bud von kimning qo'lida qolgani ma'lum emas.

Habibullo Shayton Islomxo'ja Vaziri akbarning devon xonasida yozuvchilik, hatto shoirlik hamda devonlik qilg'on. U qirq yoshidan shoirlik bilan shugvillana boshlag'on sababi, Muhammad Rahimxonga yaqin bo'lishdir. Lekin, soz ilmidan xabari bo'lmagan.

Xabibiy kalta bo'yli, cho'qqi soqol, ammo xush surat odam edi. Ko'p boxayol kishi bo'lib, sahiy emas edi. Odamlar bilan munosabati ul qadar yaxshi emas, so'zlashganda odamni pisand etmas edi.

Shoir Xabibiy 60 yoshida vafot etdi. Jasadi o'zining Xivadagi hovlisi yaqinida bo'lg'on Shoqalandarbobo qabristoniga qo'yilgan.

Laffasiyning tazkirasida esa Habibullo Oxund haqida quyidagi ma'lumotlar uchraydi:

Xiva adabiy muhiti haqida so'z borar ekan, Habibullo Oxund (Habibiy) haqida ham alohida to'xtalib o'tmog'imiz zarurdir. Shoir ko'plab ijod namunalari yaratgan bo'lib, ularda asosan ishqiy ilohiy ruhi yetakchi o'rinlarda turadi. Feruz yaratgan adabiy muhit sabab, Xivada ham ko'plab ijodkorlar va tarjimonlar bo'lgan. Buni raqamlarda ko'rib chiqsak, saroy atrofida eng ko'zga ko'ringan 180 ga yaqin shoir va Xivaning o'zida 80 ta tarjimon bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, she'riyatdagi raqobatlar ham ancha faol bo'lgan. Lekin shunga qaramay Habibiy ijodi Xiva xonligi adabiy muhitida yetakchi o'rinlarni



egallagan. Bunga misol o‘laroq Feruz o‘zidan ilgari yashab o‘tgan Qo‘qon xoni Amir Umarxon “Amiriy” buyrug‘i bilan tuzilgan “Majmuatu Shuaro” tazkirasidan ilhomlanib, Tabibiyga ham Xiva xonligida yashab ijod qilgan shoirlar antalogiyasini tuzishni buyrug‘ini beradi. Bu tazkiraning asosiy muhim shartlaridan biri shoirlar devon tartib bergan bo‘lishlari lozim edi. Har bir davrda devon tartiblagan ijodkor salobatli hisoblangan. Tabibiyning “Majmuat ush-shuaro payravi Feruz shohiy” tazkirasida 30 ta shoir haqida qisqacha, ma’lumot va shoirning g‘azallaridan namunalar keltirib o‘tilgan. Xususan, Habibiy ham ushbu tazkiradan joy olgan bo‘lib, shoirning devon tartib bergani, uning fe’lida biroz kamsuqumlik ko‘rinishini tabiati, so‘z tanlashdagi didi yuqoriligini ta’rif etadi. Keng ijodiy muhitdan faqatgina sanoqli shoirlarning bu tazkiraga kirishi orqali ham bilishimiz mumkinki, Habibullo Oxund ijod olami salmoqli bo‘lgan. Keyinchalik esa Hasanmurod Laffasiyning “Tazkirayi shuaro” asarida Xiva xonligi adabiy jarayonida ishtirok etgan 60 ga yaqin ijodkorlar haqida so‘z yuritilgan bo‘lib bunda Habibullo Oxund haqida quydagilar bayon qilinadi:

Habibiy ilm ichra olim erur,
Tabiat onga asru solim erur.
Shohanshohga ushbu erur payravi,
Kirdori latofatda asru erur,
Habibiy firoq ichra giryon erur,
Shabu ro‘z holiga el hayron erur.

Habibullo Oxund ahvoloti

Habibiyki mulloyi dono erur,
Bu adabiyotdin holi ifsho erur.

Shu masnaviy bilan boshlanib, shoir tarjimai holi haqida qisqacha ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Biz ham bu tazkiraga tayangan holda shoir biografiyasi bilan tanishamiz. Bunga ko‘ra Habibiy Xivada kambag‘al oilada tug‘ilgan. O‘qib izlanishga bo‘lgan zavqi tufayli otasidan ruxsat olib, madrasa ta’limini ko‘radi. Lekin oilada yuz bergan iqtisodiy qiyinchiliklar va otasining vafoti tufayli u ta’limni to‘xtatishga majbur bo‘ladi. Yana ba’zi



manbalarda Qur'on xatmi to'liq bo'lgandan keyin taxsilni to'xtatgan degan ma'lumotlar ham beriladi. Iqtisodiy nochorlik sabab u dehqonchilik bilan shug'ullanib, katta oilasini taminotini qiladi. Lekin adabiyotga bo'lgan qiziqishi turmush zarbalaridan ham sinmagan shoir, farzandlari balog'atga yetkanda 40 yoshida taxsilni davom ettirib, el orasida nomi chiqqan shoirga aylanadi. Xiva adabiy jarayonida muhim sanalgan har ikkala tazkirada ham Habibiyning alohida zikr qilinishi uning ijodkor sifatida yuqori maqomda turganini anglatadi. U o'z g'azallarini asosan payrav qilib yozadi. Ayniqsa, Feruzning “Paydo” radifli g'azaliga yozgan payravi juda mashhurdir.

Habibiy o'z devonini ham aynan shu “Paydo” radifli g'azali bilan boshlaydi. Shoirning “Devoni Habib” asari bizgacha yetib kelgan. Bu qo'lyozma hozirda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari universitetida №946 raqam bilan saqlanadi. Ushbu devon hamd bilan boshlanib, Allohga qullik qilish naqadar go'zalligini, shoir o'zining bandaligi qulligi eng yuqori maqomda ekanini aytib faxr tuyg'isini tuyadi. Agar Alloh rahmat qilib “Lutf qo'lini cho'zmasa”³, uning qo'lidan hech ish kelmasligini nola bilan bayon qiladi. Habib devoni g'azal, muhammas, musaddas va qasida janrlaridan iboratdir. Devonning o'ziga xosliklaridan yana bir jihati har bir janr tartib raqam bilan xattot tomonidan belgilab ketilgan. Bu ham Xiva xonligi adabiy muhitining o'ziga xosliklaridan biridir.

Ko'plab shoirlar singari Habibiy ham Xiva adabiy muhitida yaratilgan erkin ijod olamida salmoqli ijod qilgan shoirdir. Uning yozgan devoni ham XIX oxiri XX asr boshlaridagi jadidchilik ruhi bilan yozilgan she'riy namunalarning eng asaralari jam bo'lgan ijod mahsulidir. O'z zamondoshlarining orasida ham u tartib bergan devon mashhurlikka erishganini alohida ta'kidlab o'tish joizdir. Bir so'z bilan aytganda Feruz yaratgan adabiy muhit barcha shoir va ijod ahillari uchun eng sermahsul ijod namunalaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

³ “Devoni Habib” Habibiy. Узбекиский Государственный Научно-Исследова.Институт.БИБЛИОТЕКА.год.Самарканд.



Adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмедова Г. Огаҳий – адабий танқидий қарашлари: Филол. фан. номз... дис. автореферати. – Тошкент, 2011. – Б.18.
2. Белинский В. Г Собрание сочинений, В. 3-т Т.1–М.:Изд-во, АН, 1948. –С. 164-165.
3. Болтабоев Ҳ, Тазкиралар зикри. – Т.: Mumtoz so'z, 2015–Б. 3
4. Бобожон Тарроҳ Ходим. Хоразм шоир ва навозандалари. – Т.: Tafakkur qanoti, 2011. Б -4.
5. Бобожон Тарроҳ Ходим. Хоразм навозандалари. (Давлатер Раҳим нашрга тайёрлаган). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1994. 192-б.